

Tadbirlar

- Zavodga media-tur tashkil qilindi

22.10.2018

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 12 aprelda Toshkent shahri Chilonzor tumaniga tashrifi doirasida "OLOY GULZOR SERVIS" MChJ negizida "GOLDEN CORN" Toshkent kraxmal-patoka zavodini tashkil qilish loyihasi taqdimot qilingan edi. 2018 yil 20 oktabr mazkur zavod ishga tushirildi.

- Rossiya banki bilan Hadli bitim imzolandi

19.10.2018

ATB "Qishloq qurilish bank" o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlarning imkoniyatlarini oshirish maqsadida xorijiy moliya-kredit muassasalari, jumladan, Rossiya Federatsiyasi tijorat banklari bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilmoqda.

- Sumitomo Mitsui Banking Corporation (Yaponiya) bilan hamkorlik munosabatlari o'rnatilmoqda

03.10.2018

ATB "Qishloq qurilish bank" Yaponiyaning Sumitomo Mitsui Banking Corporation vakillari bilan uchrashdi.

- Qo'shma matbuot anjumani o'tkazildi

25.09.2018

2018 yilning 25 sentabr kuni O'zbekiston Milliy matbuot markazida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va ATB "Qishloq qurilish bank" hamkorligida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun matbuot anjumani tashkil etildi.

- Bank kitob taqdimot tadbirini tashkil qildi

08.09.2018

Poytaxtimizdagi "Wyndham" mehmonxonasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Ahmadali Asqarov qalamiga mansub "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" nomli asarning rus tilida chop etilgan nashri - "Istoriya proisxojdeniya uzbekskogo naroda" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

- Xitoylik hamkorlar bilan kelishuv imzolandi

16.05.2018

Joriy yilning 10-11 may kunlari bank Boshqaruvi rahbariyati Xitoyning Sanoat va tijorat banki vakillari bilan muzokaralar o'tkazishdi va muzokaralar yakunida Moliyaviy hamkorlik bo'yicha Dastlabki kelishuv imzolandi.

- "Qishloq qurilish bank" xodimlari - Xivada!

10.05.2018

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdiqlangan "Xorazm viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyoxlar sonini yanada oshirish hamda Xiva shahrining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi" ijrosini ta'minlash va xodimlarning ma'naviy-madaniy hordiq chiqarishlarini rag'batlantirish maqsadida ATB "Qishloq qurilish bank" mintaqaviy hamda tuman filiallarida faoliyat yuritayotgan bir guruh x...

- "Qishloq qurilish bank" xodimlari - Xivada!

10.05.2018

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdiqlangan "Xorazm viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyoxlar sonini yanada oshirish hamda Xiva shahrining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi" ijrosini ta'minlash va xodimlarning ma'naviy-madaniy hordiq chiqarishlarini rag'batlantirish maqsadida ATB "Qishloq qurilish bank" mintaqaviy hamda tuman filiallarida faoliyat yuritayotgan bir guruh x...

- Xotira - muqaddas, inson qadri - aziz!

07.05.2018

Xotira va qadrlash - xalqimizning asriy qadriyatlarini, ulug' fazilatlaridan. El-yurtining tinchligi, osoyishtaligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar hamisha xalqimiz ardog'idadir.

- "Korrupsiya - milliy-ma'naviy xavfsizlikka tahdid"

27.04.2018

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan "2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi"da korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ishlarni tizimli ravishda olib borish vazifasi belgilangan.

- "Korrupsiya - milliy-ma'naviy xavfsizlikka tahdid"

27.04.2018

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan "2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi"da korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ishlarni tizimli ravishda olib borish vazifasi belgilangan.

- Jurnalistlar bilan muloqot

05.04.2018

2018 yilning 5 aprel kuni O'zbekiston Milliy matbuot markazida ATB "Qishloq qurilish bank" tomonidan "Qishloq joylarda namunaviy loyihadagi uy-joylar qurish borasida erishilgan natijalar: tajriba, amaliyot va muammolar" mavzusida brifing o'tkazildi.

- Mijozga xizmat: zamonaviy talablar va yondashuvlar

13.03.2018

2018 yilning 12-13 mart kunlari ATB "Qishloq qurilish bank"da "Mijozga xizmat: zamonaviy talablar va yondashuvlar" mavzusida o'quv-seminar bo'lib o'tdi. Unda bankning departament va boshqarmalari

boshliqlari, bank filiallarida tashkil etilayotgan “Mijozga xizmat” axborot markazi xodimlari ishtirok etishdi.

- Ayollar doimo ehtiromga loyiq

07.03.2018

ATB “Qishloq qurilish bank”da 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi. Unda ayollarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o’rni va mavqei kuchayib, ularga g’amxo’rlik va ehtirom ko’rsatish milliy ma’naviyatimizning uzviy qismiga aylanganligi ta’kidlandi.

- Hamkorlik yo’nalishlari bo’yicha fikr almashildi

08.02.2018

2018 yil 8 fevral kuni ATB “Qishloqqurilishbank”da O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi vakillari bilan uchrashuv bo’lib o’tdi. Unda bank Boshqaruvi raisi o’rinbosari G’.Abduraxmanov, departament va boshqarmalar boshliqlari ishtirok etdi.

- Buyuk davlat arbobi xotirlandi

26.01.2018

ATB “Qishloqqurilishbank”da davlatimiz rahbarining 2017 yil 27 noyabrdagi “O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug’aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to’g’risida”gi qarori ijrosini ta’minlash doirasida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi.

- Kitob - millatning ma’naviy ko’zgusi

22.01.2018

Kitob - inson ma’naviyatini belgilovchi muhim vositalardan biridir. ATB “Qishloqqurilishbank” markaziy idorasida o’tkazilgan “Kitob - millatning ma’naviy ko’zgusi” mavzuidagi tadbirda shaxsning dunyoqarashi, salohiyati, madaniyati aynan kitob o’qish jarayonida shakllanib borishi, insoniyat yaratgan kashfiyotlar orasida eng hayratlanarlisi kitob ekanligi ta’kidlandi.

- Vatan himoyachilari kuniga bag’ishlandi

15.01.2018

ATB «Qishloqqurilishbank»da “14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni”ga bag’ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi. Unda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, Vatanimiz sarhadlarini himoyalashda O’zbekiston Qurolli kuchlarining o’rni va ahamiyati haqida so’z bordi.

- Konstitutsiya – huquq va manfaatlarimiz kafolati

06.12.2017

2017 yilning 5 dekabr kuni ATB “Qishloq qurilish bank” va Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O’zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo’mitasi hamkorligida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag’ishlab “Konstitutsiya – huquq va manfaatlarimiz kafolati” mavzusida davra suhbatlari o’tkazildi.

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish – davlat va jamiyat xavfsizligi garovi”

13.11.2017

ATB "Qishloq qurilish bank"da O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi" Qonuni targ'ibortiga bag'ishlangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish - davlat va jamiyat xavfsizligi garovi" mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

<http://qishloqqurilishbank.uz/uz/ads/>

© 2019 © Qishloq Qurilish Bank